

“YUSUFBEK” DOSTONIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

O‘ngboyev Ramazon Mahmatali o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti 2-bosqich talabasi.

Tel: (97) 314-04-17. ongboyevramazon2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15498263>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qahhor baxshi Rahimov kuylagan “Yusufbek” dostonida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklar shakllanishida asosiy komponent vazifasidagi leksemalarga alohida e‘tibor qaratiladi hamda ularning izohi tegishli lug‘atlardan keltiriladi. Lingvomadaniy jihatdan chuqur tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar. frazeologiya, frazeologik birlik, uzual birlik, semantik ma‘no, omonimlik, antonimlik, sinonimlik.

Аннотация. В статье анализируются лингвокультурологические особенности фразеологических единиц, используемых в эпической поэме «Юсуфбек» в исполнении Каххора Бахши Рахимова. Также особое внимание уделяется лексемам, выступающим в качестве основных компонентов при образовании фразеологических единиц, и приводятся их пояснения из соответствующих словарей. Они глубоко изучены с лингвистической и культурной точки зрения.

Ключевые слова. фразеология, фразеологическая единица, общая единица, семантическое значение, омонимия, антонимия, синонимия.

Abstract. This article analyzes the linguocultural characteristics of phraseological units used in the epic Yusufbek, performed by Qahhor Bakhshi Rahimov. Special attention is paid to the lexemes that function as key components in the formation of these phraseological units, and their meanings are provided using relevant dictionaries. The study offers an in-depth linguocultural analysis.

Keywords: phraseology, phraseological unit, common unit, semantic meaning, homonymy, antonymy, synonymy.

Kirish. Frazeologik birliklar millat mentaliteti va madaniyati haqidagi ma‘lumotlarning qimmatli manbaidir. “Frazeologizmlar tilda madaniy axborotlarni, xalq milliy tafakkur tarzini o‘zida aks ettirgan inson kommunikativ-situativ jarayonining eng muhim birliklaridan biri hisoblanib”[3.22], ular xalq og‘zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda, hamda xalq tili va urf-odatlarida o‘zgarmay saqlanib kelmoqda. Rus tilshunosi B.A.Larin “Tongda yorug‘lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, iboralar xalq dunyoqarashi, ijtimoiy tuzum, o‘z davri mafkurasini shunday aks ettiradi”[4.], – degan edi. Shu sababli dunyo tilshunos olimlarini frazeologik birliklar doimo qiziqtirib kelgan. Rus tilshunosligida V.N.Teliya va uning maktabi vakillari iboralarni o‘rganligi bilan mashhur. Iboralarni o‘rganishdan maqsad esa ularning milliy-madaniy ko‘chma ma‘nolarini tavsiflash va mentalitetning xarakterlovchi qirralarini ochib berishdir. O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullaev, B.Yo‘ldoshev, Sh.Usmonova, A.Mamatov, Sh.Almamatova, Sh.Ganieva, G.Hakimova kabi tilshunos olimlarning ishlarida bu birliklarning o‘ziga xos belgilari, taraqqiyoti, uslubiy jihatlari, etimologik xususiyatlari, ayrim tillar frazeologizmlari bilan qiyoslanishi, frazeologizmlarning modellashtirish muammolari, strukturaviy va semantik xususiyatlari kabi masalalar o‘rganilgan[5].

Keyingi yillarda e'lon qilinayotgan ishlarda frazeologizmlarning lingvokulturologik tomonlariga alohida e'tibor berilayotganligini ko'rishimiz mumkin [6.]. Lingvokulturologiyaga oid ishlarining salmog'i ortib borgani sayin o'zbek frazeologik birliklarini lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish ham bugungi kun tilshunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Quyida Qahhor baxshi Rahimov kuylagan "Yusufbek" dostonida ishlatilgan ayrim frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Ashurov Dilmurod Axmadaliyevich o'zining "Alpomish dostonining lingvokulturologik xususiyatlari"[7.] nomli ilmiy Ishida frazeologik birliklarni

Bosh uzvli frazemalar, peshona uzvli, bo'yin uzvli, ko'z uzvli, quloq uzvli, og'iz uzvli, burun uzvli, til uzvli, ko'ngil uzvli, bag'ir uzvli frazemalarga ajratgan holda tahlil qiladi.

Asosiy qism. "Yusufbek" dostonida ishlatilgan frazeologik birliklar o'zbek xalqining hissiy olami, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va qadriyatlarini ifodalaydi. Quyida ayrim frazeologizmlar va ularning lingvomadaniy tavsifi keltiriladi:

DIMOG'(I) CHOG' BO'LDI- DIMOG'(I)-NI CHOG' QILMOQ kayfiyati yaxshilandi. Sinonimi: – bahr(i) ochildi, kayf(i) chog' bo'ldi – kayf(i)ni chog' qilmoq [2.135].

– Ho' cho'pon, quloq sol, – dedi Go'ro'g'libek otidan **dumog'i choq bo'lib**. Qo'rqq odam iziga qaytadi, jang maydonni tashlab qochadi, nomardligidan yurtdan kichadi [1.28].

O'zbek xalqida odamning ruhiy holati ko'pincha tana a'zolari orqali ifodalanadi. Dimog'i chog' bo'lish – o'ziga ishonchli, yutug'idan quvongan holatni bildiradi.

QULOG'(I) DING BO'LDI – QULOG'(I)NI DING QILMOQ- diqqat bilan tinglashga tayyor bo'lmoq [2.423].

Shu palla atrofida allaqanday sharpalar, yoqimsiz ovozlari paydo bo'laberdi. G'iro't ham **qulog'ini ding qildi**, Go'ro'g'libek ko'kragini keng qildi [1.25]. Bu frazeologizm hushyorlik, voqeani sezish, anglashga tayyor holatni bildiradi.

JON-PON(I) CHIQUIB KETDI- JON-PON(I)NI CHIQUARIB YUBORMOQ- nihoyatda qattiq qo'rqqmoq. Varianti: jon-pon(i) chiqa yozdi; jon(i) chiqib keta yozdi; jon(i) chiqdi.

Sinonimi: jon(i) halqum(i)ga keldi, es(i) chiqib ketdi [2.233].

TOQATI YO'Q -sabr etmaslik [2.505].

Alqissa, To'tixol pari o'g'li Yusufbekdan bu xabarni eshitib, **jon-poni chiqib ketayozdi**.

Go'ro'g'libek degandan keyin ena sho'rda **toqat qolmadi**, dirillab qo'rqqayotir [1.23].

O'zbek xalqida qo'rquv hissi jon bilan bog'lanib tasvirlanadi. Bu ibora holatning kuchlilikini kuchaytirish uchun ishlatiladi.

KO'Z TEGDI-ko'zikmoq. ko'z(i) tegdi [3.256].

To'tixol pari o'g'li Yusufbekning aqli-zakovatiga, fahm-farosatiga, kun aro turlanayotgan qaddi-qomatiga **ko'z tegmasin** deb, o'g'lining qomatiga bir-bir tuflab qo'ydi [1.23]. Bu ibora xalq e'tiqodlari va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, "ko'z urmasin" degan niyat bilan o'ziga yoki boshqaga tupurish odati bilan uyg'unlashadi.

BEL BOG'LAMOQ- 1 shaylanmoq, o'tlanmoq. Varianti: bel(i)ni bog'lamoq belin bog'lamoq, bellarin bog'lamoq. Sinonimi: yeng shimarmoq [2.70].

YO'L SOLMOQ- yo'nalmoq. Sinonimi: yo'l olmoq [2.584].

Alqissa, Qambar bobo Go'ro'g'libekka duo berib, pand-u nasihat aylab, hikmat bilan **belini boylab**, bekni yengilmas bahodir qilib shaylab, Boytilsim mamlakatining **yo'liga soldi** [1.18]. Bu ibora xalqning mehnatga, kurashga o'tlanish oldidan qilinadigan jismoniy va ruhiy tayyorgarligini bildiradi.

Harakat oldidan tayyorgarlik – **marosim va niyat** ramzi. Bu ibora orqali xalqning **duo bilan ish boshlash** an'anasi ko'rinadi.

QULOQ SOLMOQ- 1 tinglamoq. Varianti: quloq osmoq (eskirgan). Sinonimi: quloq bermoq [2.277].

Alqissa, ana endi Go'ro'g'libek: "Ey Qambar bobo, men ota bo'lmadim, avvalasi yigit bo'lmay o'lmadim, siz aytganday, zot so'ramay, ot so'radim, imo-ishorangizga **quloq solmadim** [1.3]. Bu ibora shaxsning boshqalarga nisbatan hurmatini yoki beparvoligini ifodalashda ishlatiladi.

BOSH KO'TARMOQ- qaramoq.. Varianti: bosh(i)ni ko'tarmoq. **BOSH KO'TARMOQ** II unib chiqmoq. Bosh ko'tarmoq, yostiqlan bosh ko'tarmoq [2.95].

Men chiday olmay Sunduz tovdagi chiltanlar g'oridan yetib keldim, senga hamdard bo'ldim, men endi sirimni senga aytayin, undan keyin g'orga qaytayin. Mardning yig'lagani – egilgani, singani, g'aflatdan **boshingni ko'tar**, – deb so'zlayotgan joyi: [1.2]. Ruhiy holatini tiklamoq, o'zini tutib olish.

PINAG(I)NI BUZMASLIK-o'ziga qaratilgan gap yoki harakatga bila-ko'ra turib e'tibor qilmaslik o'zini go'yo hech narsa sezmagandek tutmoq. Varianti: pinak buzmay (–) [2.390].

UMID(I)NI UZMOQ – **UMID(I) UZILDI**-ko'nglidagi oxirgi ilinjini ham yo'qotmoq.

Varianti: umid uzmoq– umid uzildi, umidni uzmoq, umid rishtalari uzildi [2.523-524].

Alqissa, Ashirbek bu so'zlarni aytgandan keyin Ahmad qari **pinagini ham buzmedi**, gapning sira ma'nisini sezmedi, ikki paridan **umidini uzmedi** [1.56]. Inson o'zini bildirmaslikka, ichki holatini yashirishga harakat qiladi.

BOSH(I)NI BUKMOQ–**BOSH(I) BUKILDI**-uyat-nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushirmoq. Varianti: bosh(i)ni yerga bukmoq; bosh(i)ni quyi egmoq; egilgan bosh(i) Sinonimi: yuz(i) yerga qaradi kimning?– yuz(i)ni yerga qaratmoq kim? kimning? yerga qaramoq kim? – yerga qaratmoq, bosh(i)ni xam qilmoq [2.106].

YER CHIZMOQ-noqulay ahvolga tushib, xijolat bo'lib boshini quyi egmoq [2.550].

Alqissa, podsho Norg'ulbek bu gapidan keyin kengashda o'tirgan a'yonlar-u no'yonlar, akabir beklar bari mustar bo'lib, **boshi yerga egilib, yer chizib qoldi**.

DARMONI QURIMOQ-kuch-quvvati, madori qolmadi, madorsizlandi [2.129].

YURAG(I) TO'KILIB TURIBDI- alamidan yig'lab yuborish holatida bo'lmoq.

Varianti: to'kilib turgan yurag(i) [2.568].

Mamlakat motamsaro, ko'chalar huvillagan, itlar ochlikdan uvillagan, odamlar u yer bu yerda ocharchilik va suvsizlikdan lablari qotib, **darmoni ketib, yuragi so'tilib**, ingranishga ham holi yetmay ko'lankalarda yotibdi[1.79]. Tabiiy ofat, ocharchilik va tashvish holatida xalqning sabr-toqati yo'qoladi.

YURAG(I)GA G'ULG'ULA TUSHDI- bezovta bo'lib qolmoq. Varianti: ko'ngl(i)ga g'ulg'ula tushdi. Antonimi: ko'ngl(i) joyiga tushdi [2.572].

Alqissa, Jolompir vazir o'g'li Yusufjondan bu gapni eshitib, badani muzlab, yurak urishi tezlab ketdi. Boz ustiga **yuragiga hovlika tushdi** [1.93]. Yurak – xalq tafakkurida hissiyotlar markazi. G'ulg'ula tushish – ichki iztirob.

KO'Z(I)GA YOSH OLMOQ- kuchli hayajonlanish, to'liqinlanish natijasida ko'zidan nam chiqarmoq[2.267].

Yusufning ko'ngliga meni muhrlaganiga, bolani mehribon qilib sehrlaganiga shukronalar bo'lsin deb lalmi-lalmi **ko'ziga yosh oldi** [1.107]. Bu ibora odamning yuragidan chiqqan tuyg'ularining ko'zga ko'chgan shaklidir.

BAG'RIGA BOSMOQ- quchoqlamoq, erkalatmoq.

Yusufjonni **bag'riga bosib** “Bolani bir sinab ko'rayin”, – deb ikki og'iz so'zlayotgan joyida [1.98]. O'zbek xalqida mehr-muhabbat, yaqinlik, kechirim ramzi sifatida ishlatiladi.

BAG'RINI TUZLAMOQ achitmoq, azob bermoq [2.68].

*Befarzandlik yomon o'g'lon izladim,
Goh kechalar yig'lab bag'rim tuzladim,
Keksalikni o'ylab ko'rsam muzladim,
Sendan boshqa suyanchim yo'q dol G'ivot,
Seni bor deb qilib keldim qanoat* [1.26].

Ichki og'riq, azob, befarzandlik dardi orqali ifodalanadi. Bu – o'zbeklarning **oilaparast** jamiyatiga ishora.

MUSHKUL(I)NI OSON QILMOQ- qiyin, og'ir ahvolini yengillashtirmoq [2.319].

Qo'rqma, ko'zga ko'rinmas baqiriq-chaqiriq bo'labersa, Ollohning kalomidan oyat o'qi, **mushkuling yengil bo'ladi**” [1.25]. Bu ibora yordam, duo va imon orqali qiyinchilikdan chiqish g'oyasini anglatadi.

Xulosa. Frazeologik birliklar har bir millatning madaniy boyligini, tarixiy xotirasini, urf-odatlarini va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Ular xalqning hayot tarzi, ruhiy holati, dunyoqarashi va qadriyatlarini ifoda etishda beqiyos vosita sanaladi. Qahhor baxshi Rahimovning “Yusufbek” dostonida uchraydigan frazeologizmlar ham o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti, hissiy kechinmalari va urf-odatlariga boy ma'lumot beradi.

Lingvokulturologik yondashuv asosida frazeologizmlarni tahlil qilish nafaqat til boyligini o'rganishga, balki xalqning madaniy merosini, milliy tafakkurini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. “Yusufbek” dostoni misolida bu frazeologik birliklar xalqimizning tarixiy-madaniy tafakkurida qanday o'rin egallaganini yaqqol ko'rsatadi. Shu jihatdan, frazeologizmlar – bu faqat til hodisasi emas, balki xalq ruhiyatining lingvistik aksidir. Shu asosda, “Yusufbek” dostoni o'zbek frazeologiyasining lingvomadaniy boyligini yorituvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. “Yusufbek. Aytuvchi: Qahhor baxshi Rahimov, O'zbekiston xalq baxshisi. Yozib olib nashrga tayyorlovchilar: Shahnoza Qahhorova, f.f.n., dotsent, Doston Abatov, f.f.f.d., v.b. dotsent. – Qarshi, – 2025
2. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022.
3. Исмоилов Ф. Оламнинг фразеологик манзарасида «инсон» концепти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2010.
5. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 1993;
6. Холмурадова Л. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематикидеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017
7. Ашуров Д.А. “Алпомиш” дostonининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. док. (PhD) дис. – Наманган, 2020.